

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhammadov, D.R.Murodova Integrativ yondashuv asosida bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini pedagogik kompetentligini rivojlantirish.....	6
M.A.Shaxodjayev, J.G'.Obidov Bo'lajak muhandislarni tayyorlashda mustaqil ta'lim orqali o'quv materiallarini imitatsion-variantivlik asosida modellashtirish texnologiyalari	10
Sh.M.Ibragimov Hemis tizimida masofali ta'lim sharoitida onlayn nazoratni tashkil etish.....	14
A.U.G'ofurov Bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining sport turizmiga doir bilimlarini rivojlantirishning texnologik asoslari	19
B.Sh.Mo'llayev Shaxsga yo'naltirilgan innovatsion ta'lim texnologiyalari.....	26
A.B.Uralov Affiksoidlarning yuzaga kelishi bilan bog'liq nomutanosibliklar	32
R.A.Hamroqulov Sport mashg'ulotlarini tashkil qilishda yangi texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligi	37
M.M.Yuldashev Sog'lom turmush tarzini joriy etish va jismoniy madaniyat mutaxassislarini valelogik madaniyatini rivojlantirish	41
Sh.D.Ismoilov Oilada bolalarni milliy qadriyatlar va an'analar asosida o'zaro munosabatlarini shakllantirishning nazariy metodologik asoslari.....	45
B.B.Djalalov Bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion kompetentligini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon modeli	48
K.I.Marayimova Bo'lajak o'qituvchilarni muzey pedagogikasi faoliyatiga tayyorlash bo'yicha xorijiy tajribalar	54
A.A.Abdusattorov Musiqa fani o'qituvchisining kasbiy tayyorlashning zamonaviy yondashuvlari	59
J.E.Tursunov Texnologiya darslarida o'quvchilarda kreativlikni rivojlantirish	63

A.A.Qambarov O'zbek falsafasi shakllanishida markaziy osiyo mutafakkirlarining o'rni va ro'li.....	68
I.A.Asatulloev Zamonaviy g'arb falsafasida qalb konsepsiyasi.....	75
H.M.Rasulov Ommaviy axborot vositalari - siyosiy-huquqiy madaniyat targ'iboti subyekti sifatida	80
M.D.Pardayeva Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida alisher navoiy tasavvufiy qarashlarining o'rni	84
S.Q.Qakhorova Amir xusrav dehlaviy falsafiy-nazariy ta'limoti	89
D.O.G'afurov Tasavvuf ta'limotida tolerantlik masalasi va uning oila farovonligini ta'minlashdagi o'rni	92
G.A.Karimova Oiladagi ijtimoiy-ma'naviy muhitning farzand tarbiyasiga ta'siri	96
M.Sh.Qoraboyeva O'rta asrlar islom olamida gnoseologik faoliyatning teologik asoslariga doir qarashlar	104

AFFIKSOIDLARNING YUZAGA KELISHI BILAN BOG'LIQ NOMUTANOSIBLIKLAR

АСИММЕТРИЯ СВЯЗАННЫЕ С ВОЗНИКНОВЕНИЕМ АФФИКСОИДОВ

ASYMMETRY IN THE OCCURRENCE OF AFFIXOIDS

¹Uralov Azamat Begnarovich¹Sirdaryo viloyati pedagogika markazi Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasini mudiri, f.f.f.d.(PhD), dotsent**Annotatsiya**

Maqolada morfologik shakl hisoblangan affiksoidlarni yuzaga kelishi, rivojlanishi va taraqqiyoti tadqiq qilingan. -sher, -toy, -xon, -jon, -niso, -zoda, -xo'ja, -bibi, -to'ra, -oy, -mirza, -bek, -bobo, -poshsha, -shukur, -bo'ta, -qo'zi, -qul singari affiksoidlar tahlilga tortilib, ularda ro'y bergan nomutanosibliklar ilmiy asoslab berilgan. Affiksoidlarning til tizimidagi o'rni, ma'nolari, shakl yasovchi affiksoid misolida ko'rsatiladi.

Аннотация

В статье рассматривается возникновение, развитие и прогресс аффиксидов, которые считаются морфологической формой. Аффиксиды, такие как -шер, -тай, -хан, -жан, -нисо, -зода, -ходжа, -биби, -тора, -ой, -мирза, -бек, -бобо, -пошша, -шукур, -бота, -кози, -кул были проанализированы и возникающие в них дисбалансы научно обоснованы. Место аффиксидов в системе языка, их значения показаны на примере формообразующего аффиксида.

Abstract

The paper discusses the emergence, development and progress of affixoids, which are considered a morphological form. Affixoids such as -sher, -tai, -khan, -zhan, -niso, -zoda, -khodzha, -bibi, -tora, -oy, -mirza, -bek, -bobo, -poshsha, -shukur, -bota, -kozi, -kul have been analysed and the imbalances arising in them have been scientifically substantiated. The place of affixoids in the language system, their meanings are shown on the example of form-forming affixoid.

Kalit so'zlar: nomutanosiblik (asimetriya), affiksoidlar, shakl, ma'no, morfema, suffiksoid, prefiksoid, so'z va shakl yasalishi, ismlar, atoqli otlar.

Ключевые слова: диспропорция (асимметрия), аффиксиды, форма, значение, морфема, суффиксид, префиксид, словоформообразование, имена, имена собственные.

Key words: disproportion (asymmetry), affixoids, form, meaning, morpheme, suffixoid, prefixoid, word and form formation, names, proper nouns.

KIRISH

Fikr mutanosiblik va nomutanosiblik haqida borar ekan har qanday shakl yangi mazmun ifodalashi bilan oldingi shakliga nisbatan nomutanosib bo'lib boraveradi. Bizga ma'lumki, affiksoidlar mustaqil so'zlar sifatida ishlatilgan, o'z ma'nosini yo'qotish evaziga affiks maqomini olgan, so'zlar tarkibida morfologik yoki so'z yasash shakllariga nisbatan qo'llanadigan, vazifa jihatidan affiksga tortilgan birliklarga aytiladi. Affiksoidlar shakl jihatdan so'zga, mazmun jihatidan esa morfemaga teng birlik bo'lib, shakl va mazmun jihatidan nomutanosibdir. Shu jihatlarni hisobga olib, morfologik shakllar tizimida o'rganilishi lozim degan xulosaga keldik. Affiksoidlar masalasida erkalash va hurmatlash qo'shimchalarining o'rni va vazifalarini ko'rib chiqqanimizda turli nomutanosibliklarga guvoh bo'lamiz. Aslan olib qaralganda, bunday birliklar lug'aviy shakllar hisoblanadi, biroq diaxron jihatdan tub so'zlardan hosil bo'lganligi sir emas. Chunki bunday birliklar so'z sifatida ham, qo'shimcha sifatida ham mavjud.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

Ayrim mustaqil so'zlarning yordamchi so'zlarga aylanishi holatlari turkiy tilshunoslikda V.V.Radlov, Yevropa tilshunosligida E.Sepir asarlarida ko'rsatib berilgan. Bu xususida o'zbek tilshunosligida A.G'ulomov, A.Hojiyev, Sh.Rahmatullayev, A.Berdaliyev, Y.Tojiyev, T.Mirzaqulovlarning ishlarida ham fikrlar bildirilgan.

Affiksoidlar so'zning qaysi qismida kelishiga ko'ra suffiksoid va prefiksoidlarga ajraladi. Bu xususida A.Berdaliyev va I.Ermatorlar oliy ta'lim talabalari uchun yaratgan darsligida "...tilda bir qator lug'aviy birliklar, ma'nosi mavhumlashib, xiralashib affiks vazifasida ham ishlatila boshlaydi. Bunday hodisalar so'z va qo'shimcha oralig'ida qalqib turadi: mustaqil so'z sifatida ham, affiks sifatida ham ishlatilaveradi, – deya ta'kidlab, – Affiksoidlar ham, me'yoriy-rasmiy affikslar kabi, o'zakka qo'shilish o'rniga ko'ra, ikki xil bo'ladi: a) suffiksoidlar; b) prefiksoidlar" [1. 2022. 24-25]

PEDAGOGIKA

ekanligini qayd etadilar. Ishimizdagi barcha misollar suffiksoidlardan olinib, ularni ayrim holatlarda prefiksoid bo'lib kelishi ko'rsatib beriladi.

Affiksoidlar masalasida yana bir qarash borki, bu fanda nechog'lik o'z isbotini topishi muammo. Professor Sh.Rahmatullayevning ko'rsatishicha: "Sifat leksema oldidan *eng, g'oyat, g'oyatda, bag'oyat, nihoyatda, juda* kuchaytiruv morfema-affiksoidlarini keltirish bilan sifat leksema anglatadigan belgi kuchli darajada ekanligi bildiriladi: *eng go'zal, juda go'zal* kabi" [2. 2006: 152]. Sifatlarining ortirma, ravishlarda kuchaytiruv (*juda, g'oyat, eng: juda tez yugur, eng sekin yur* kabi) darajasini hosil qilishda ishlatiladigan birliklar tashqi tomondan affiksoidga o'xshasa-da, bunday birliklarni affiksoid deb bo'lmaydi. Chunki mustaqil so'zlarning qo'shimchaga tortilishi orqali hosil bo'lgan birliklarnigina affiksoid deyish mumkin. Bunday birliklarni mustaqil so'z sifatida qayd etamiz va buni affiks sifatida ishlatmaymiz. Shu sababli yuqoridagi fikrga qo'shilib bo'lmaydi. Fan buni ilmiy jihatdan inkor etadi. "Leksik tabiatli morfema affiksdan (shuningdek, affiksoiddan ham) keskin farq qiladi: o'zi taalluqli leksemaga zich qo'shilmaydi, balki ayrimligi saqlanadi, leksemaga o'xshashlik belgisi shu xususiyatida namoyon bo'ladi. Lekin grammatik ma'no ifodalashiga ko'ra affiksga tenglashadi. Tashqi jihati (leksemaga zich qo'shilmaligi) emas, mazmun jihati (grammatik ma'no ifodalashi) asosida bunday birlikni leksik tabiatli morfema deb nomlash mumkin" [3. 2022: 11].

Ayrim manbalarda tarixiy nuqtayi nazardan *ermog* fe'lidan hosil bo'lgan, bugungi kunda to'liqsiz fe'llar nomi bilan ataladigan *edi, ekan, emish* shakllari ham affiksoid holatiga kelib qolgan birlik sifatida qaraladi: "Uch affiksoid – *edi, ekan, emish* garchand asos (e-) va affiks (*-di, -kan, -mish*) qismlaridan tashkil topgani aniq sezilib tursa ham, bunday ma'noli qismlarga ajratilmaydi, yaxlitligicha affiksoid deyiladi" [2. 2006: 185]. *Edi, ekan, emish* birliklarini to'liqsiz fe'l – so'z turkumi sifatida qayd etish to'g'ri. Ammo bu birliklarni affiksoid deb qarash noto'g'ri bo'ladi. Shu sababli bunday birliklar o'z ma'nosidan ancha uzoqlashib ketgan bo'lsa-da, fe'llarda analitik shakllarning ikkinchi qismi bo'lib keladi: *-(i)b edi, -(i)b emish; -gan edi, -gan ekan, -gan emish; -sa edi, -sa ekan* kabi. "Tilning morfem tizimida o'zak va affiks morfemalaridan tashqari "so'z" shaklidagi birliklar ham mavjud. Ularni shartli ravishda yordamchi morfemalar deyiladi. Bunday morfemalar asosan affiks morfemalarning vazifadosh "eshdoshi" hisoblanadi.

Yordamchi morfemalar, yuqorida ham aytilganidek, tilning so'z yasalishi va shakl yasalishi tizimida affiks morfemalar bajargan vazifalarni bajaradi. Yordamchi morfemalar ham, affiks morfemalar kabi, ma'no va vazifasiga ko'ra dastlab ikki turga ajraladi: a) so'z yasovchi yordamchi morfemalar; b) shakl yasovchi yordamchi morfemalar" [1. 2022: 55]. Garchi olimlar *-(i)b edi, -gan emish, -sa ekan* kabi analitik shakllar tarkibidagi to'liqsiz fe'llarni yordamchi morfemalar deb yuritsa-da, analitik shakllarning o'zi alohida mustaqil morfema sifatida hali to'liq qayd etilmagan.

NATIJARLAR TAHLILI

Asli so'z sifatida qayd etilib, qisman yoki to'laligicha so'zlik xususiyatini yo'qotib, affiks sifatida keng qo'llana oladigan birlikka affiksoid deb qaralishi lozim. Bu fikrni professor Y.Tojiyevning fikri ham isbotlaydi: ".. ayrim so'zlarning affiks morfemalar qatoriga siljishi natijasida (affiksoidlar): *-xona, -jon, -xon, -oy, -obod, -boy, -bachcha/-vachcha, -toy* kabi (ishxona, oshxona; Ahmadjon, Salimaxon; Rahimaoy, Dehqonobod, Halimboy; amakivachcha, Rahimtoy, Mullatoy...kabi)" [4. 1992: 25] affiksoidlar hosil bo'ladi. Chunki affiksoid masalasi ilm-fanda nomutanosib holatlarda ko'p uchraydi.

Atoqli otlar doirasiga kiruvchi ismlar orasida Barno, Gavhar, Halim, Shirin, Dildora, Murod, Ozod... kabi ismlar keng qo'llanadi. Tilimiz bunday ismlarni erkalash va hurmatlash qo'shimchalari bilan boyitib boradi. Chunonchi, Barnoxon, Gavharoy, Halimboy, Shuringul, Ozodbek, Dildoraxon, Dilshodjon, Murodbek kabi ismlarda affiksoidlar faol ishtirok etadi.

Ismlarga qo'shiladigan bunday morfologik shakllar (lug'aviy shakl yasovchilar – suffiksoidlar): *-jon, -xon, -oy, -boy, -bek* (prefiksoid bo'lib ham kela oladi: *Jonpo'lat, Xonzoda, Boymurod, Oyxumor, Bekmurod*) o'zbek tilida erkalash ma'nosida kelib, o'zi bog'langan ismlarni erkalab chaqirishga, hurmatlab qarashga xizmat qiladi. Bunday morfemalarni asos morfema (affiksoid) sifatida ham talqin qilish mumkin. Bundan tashqari ayrim ismlar tarkibida qotib qolish hollari ham uchrashi mumkinligini Sh.Rahmatullayev qayd etgan: "Ot turkumi leksemasiga "iliq munosabat" ifodalovchi *-jon, -boy (-voy), -xon, -oy* affiksoidlari qo'shiladi: buvijon, Olimjon, Ravshanboy, Komilaxon, Tursunoy kabi. Bu affiksoidlar ayrim kishi atoqli otlarida ularning doimiy tarkibiy qismi sifatida qatnashadi: *Oyxon, O'g'iloy* kabi" [2. 2006: 149]. Oybek, Bekjon, Oyxumor

kabi ismlar tarkibida erkalash, hurmatlash affikslarining qotib qolganligini ham kuzatish mumkin. Ammo masalaning yana bir tomoni borki, bunday ismlarning hosil bo'lishida bu affiksoidlar asos vazifasini ham o'tamoqda. Shu sababli bunday birliklar o'rtasida nomutanosiblik bor deb qarash o'rinli bo'ladi. Shakllanishi nuqtayi nazaridan bir so'z hisoblanadi, so'zlar tarkibida affiks hisoblanadi, ikki asos qo'shilganida qo'shma so'z qismlari sifatiga o'tadi.

Ismlardagi erkalash va hurmat shakllarining har biri o'z vazifasiga, o'z ma'nosiga ega. Affiksoid qanday vazifada kelmasin, bir shaklga yuklanadi. Bu jarayon bir shaklga boshqa mazmunlar yuklanishi bilan ifodalanadi. Mazmunlarning biri ikkinchisini to'ldiradi hamda ma'no yaxlitlashadi. Ketma-ket qo'shilish imkoniyati mavjud bo'lib, biri yasovchi, biri shakl hosil qiluvchi sifatida qo'llanadi: *Norbekjon*. Asosga qo'shimcha ma'no yuklaydi, bu ma'nosiz ham asos o'z vazifasini to'liq bajarishi ham mumkin. Mustaqil holatda so'z, asosdan keyin kelganida affiks bo'lib kela oladi. Shakli turlicha, mazmuni bitta vazifaga xoslangan bunday affiksoidlar mutanosib yoki nomutanosib bo'lishi ham mumkin.

MUHOKAMA

Dastlab affiksoidlarning shakllanishi, rivojlanishi, taraqqiy etishi xususida fikr yuritsak. Chunki affiksoidlarning ham so'z sifatida, ham morfologik shakl sifatida ifodalanishining o'ziyoq ularda nomutanosiblik borligini ko'rsatadi. Shakl yasovchi affiksoidlarning katta qismi atoqli otlarga – ismlarga qo'shib, erkalash shaklini hosil qiladi.

Xon so'zi mustaqil holatda (*ulug' xon, xonliklar davri*) *podshoh* ma'nosida ifodalanadi. *Xon* mustaqil leksema sifatida paydo bo'lib, vaqtlar o'tishi bilan affikslar tomonga qarab siljigan. So'zning bu holatda kelishi so'z sifatida to'g'ri. Biroq affiksoid sifatida o'z ma'nosini saqlamagan.

So'zning dastlabki taraqqiyotida o'z o'rnida, leksema ma'nosida *Tug'luq, Qutbiddin, Muhammad, Alovuddin* singari ismlarda *podshoh* mazmunini berish uchun qo'shib, *Tug'luq xon, Qutbiddin xon, Muhammad xon, Alovuddin xon* tarzida idodalangan. Taraqqiyotning keyingi bosqichiga kelib esa ismlarga *-xon* sifatida qo'shilish urf bo'lgan. Bu jarayon tezlashgani sari so'z o'z xususiyatini yo'qotib, affiksga tomon tortilgan va affiksoid maqomini olgan. *Xon* so'zining affiks sifatida ham kela olishi mazmunga nisbatan nomutanosiblikni keltirib chiqargan va taraqqiyotning mahsuli sifatida affiksoid maqomini olgan. Dastlab unvonni ifodalagan ushbu affiksoid, keyinchalik naslni ifodalashga erishgan, davrlar o'tishi bilan ko'plab ismlarga qo'shib, erkalash shakliga aylangan. Natijada mustaqil so'z affiksoid tusini olgan. Bugungi kunda bunday affiksoidlarni erkalash shakli sifatida morfologik shakllar nuqtayi nazardan o'rganamiz.

-xon affiks sifatida erkalash shakli bo'lganligi bois asl ma'nosidan batamom uzoqlashib ketgan. Bu affiksoid erkalash bilan birgalikda hurmatlash ma'nosida ham qo'llanadi, ya'ni xonga qiyoslanib, hurmatlanadi: *Azimxon (Ulug'xon)*. *-xon* affiksoidining jins ajratish holati, asosan, ayollar ismiga qo'shilsa, erkaklar ismiga esa naslni ifodalash, hurmatlash uchun qo'shiladi. Bu affiksoidning xonga tegishli ayol mazmunida *xonim* so'ziga ham aloqasi bor. Ayollar ismiga qo'shib *Nodiraxonim, Dildoraxonim, Lutfiyaxonim* tarzida ishlatilishini ham kuzatish mumkin. Bu jarayonda ismda hurmatlash ma'nosi ortiq ekanligini ko'rsatadi. *Jamolxon, Nodirxon, Baxtiyorxon* tipidagi ismlarda esa nasabni ifodalash uchun ishlatiladi. Ya'ni bu ism egalari xonlar avlodidan yoki yuqori lavozimda ishlagan shaxslar avlodi ekanligi bilan ifodalansa, yana bir turi (oqsuyak) eshonlarga borib taqalishini kuzatamiz. Juda kam hollarda erkaklar ismida erkalash vazifasini bajaradi: *Hidoyatxon*. *-xon* affiksoidi so'z ma'nosida, unvonni ifodalash, nasabni ifodalash, hurmatlash ma'nosida, erkalash ma'nosida har ikki jins vakillari ismlariga qo'shib kela oladi va o'ziga xos shakliy nomutanosiblikni keltirib chiqaradi.

Shuningdek, *-xon* affiksoidi o'ziga yaqin olish, o'sha kishiga suyanish mumkin bo'lgan, qarindoshlar qatoriga qo'shish mumkin bo'lgan, bordi-keldi qilib yurgan kishilarga hurmat ko'rsatish mazmunida ham ishlatiladi. Bunday hollarda affiksoid turdosh otlarga ham qo'shiladi: *aka+xon, uka+xon* kabi. Demak, *Jamolxon* so'zida nasabni, *Dildoraxon* so'zida erkalashni, *akaxon* so'zida hurmat mazmunini ifodalaydi va bir shaklning turli mazmun ifodalashiga ko'ra nomutanosiblikni yuzaga chiqaradi.

Affiksoidlarning morfologik shakllarda o'rinlashishi boshqa turkiy tillarga ham tegishli. "Qoraqalpoq tilida ayrim affiksoidlar shakl yasovchi sifatida qaraladi. Bunday birliklarga erkalash, kichraytirish, hurmatlash kabi ma'nolarini bildiruvchi *-jan, -xan, tay, -ay, -biybi, -bay* singari affiksoidlar kiradi. Masalan, *Kamiljan, Atajan, Ataxan, Sanemay, Gulbiybi, Karimbay*" [5. 2017: 31]. Shuningdek, o'zbek tilidagi *-bek* shakli ham asli mustaqil so'z bo'lgan, tarixan unvonni ifodalagan, beklklarda ishlayotgan insonlar ismlariga qo'shilgan: *Temur bek, Ashrab bek, Kamron bek* kabi.

PEDAGOGIKA

Bek so'zining shakllanishi mavqeyi, lavozimi yoki vazifasi jihatiga ko'ra – lavozim; qaramog'idagi ma'muriy hududiga ko'ra – (XX asr boshlarida Buxoro amirligining 27 ta beklilikdan iborat bo'lganligi) hokimlik; beklarga xos xatti-harakat, yurish-turishi – iltifot kabi ma'nolarni ifodalab, mohiyatan mustaqil so'zdir. Mana shu so'zlik mavqeyidan astalik bilan erkalash shakligi o'tishi, dastlab beklilikni ifodalash maqsadida ismlarga qo'shilgan bo'lsa, keyinchalik unvonini ifodalash urf bo'lgan. Taraqqiyotning navbatdagi bosqichida affiksoid sifatida ismlarda o'rinlashadi. Natijada erkalash, hurmatlash mazmunidagi *-bek* affiksoidi paydo bo'ladi. Affiksoid bo'lib shakllangandan so'ng ham dastlab hurmatlash, keyin erkalash mazmunini ifodalagan: *Sarvarbek, Shamshodbek, Yusufbek* kabi.

-bek affiksoidi *Bekmurod, Bekturdi, Bekqobil* kabi ismlarda prefiksoid bo'lib kelsa, *Ibrohimbek, Azizbek, Ozodbek* singari ismlarda esa suffiksoid bo'lib keladi. Shuningdek, "bek" so'zi *Beknor, Bekbo'ta, Norbek, Xolbek, Oybek, Otabek* singari ismlar tarkibiga zich birikkan holda qo'shma so'zning tarkibi sifatida ajralmas holga kelib qolgan. Endilikda bunday ismlarga erkalash affiksoidining qo'shilishi tabiiy holda amalga oshmasdan (Murodjon, Murodbek, Murodxon, Murodboy), tanlov asosida qo'shiladi: *Beknorjon* (Beknorbek bo'lmaydi), *Bekbo'taboy* (Bekbo'tabek bo'lmaydi), *Norbekjon* (Norbekbek mantiqsiz qo'shilish bo'lib qoladi), *Xolbekjon* (Norbekbek?), *Oybekjon* (Oybekbek?), *Otabekjon* (Otabekbek?) kabi. Ko'rinadiki, *-bek* affiksoidining shakllanishi – so'z shaklidan affiks holatigacha bo'lgan jarayon shunday kechadiki, natijada asl so'z bilan yasalgan ismlar tarkibiga qo'shilmay qoladi. Demak, asli so'z sifatida mavjud (bo'lgan) *bek* affiksoid sifatidagi *-bek* shakliga nisbatan nomutanosibdir.

So'z tarkibida tilda rasmiylashgan ma'no va vazifasidan uzoqlashgan affiks xarakteridagi morfemalarni ko'plab uchratish mumkin. Bu xususda professor Y.Tojdiyev "O'zbek tili morfemikasi" (Toshkent, 1992) nomli asarida alohida fikrlar bildirgan. Affiksoidlar haqida fikr bildirilganida *Temur bek, Xudoyor xon, Begali xon, Amir bek* kabi ismlarda unvonni ko'rsatuvchi birlik sifatida ishlatilgan bo'lsa, keyinchalik so'z tarkibida hurmatlash va erkalash mazmuni ifodalab borgan. Shuningdek, *Xidoyatulloxon, Rahmatilloxon, Umidxo'ja, Ma'rufxo'ja, Asqarzoda, Ulug'zoda* kabi o'g'il bolalar ismidagi nasl-nasabni ifodalash uchun ishlatiladi. Ya'ni erkalash shakllarining ma'nosi kengayishi hisobiga ismlar tarkibiga shunchaki morfologik shakl – erkalash shakli sifatida emas, balki bu insonlar ulug' bir qavmning avlodlari (eshonlardan, xo'jalardan) ekanligini ko'rsatib turish anglashiladi. *-xon, -bek, -xo'ja, -zoda* (ko'proq tojikchadan o'zlashgan ismlarda) singari affiksoidlar o'z shakllanishiga va so'z tarkibida ishlatilishiga ko'ra nomutanosibliklarni yuzaga keltiradi. Ya'ni bir o'rinda so'z, bir o'rinda affiksoid holatida kelib nomutanosiblikni ko'rsatsa, affiksoid bo'lib kelgan o'rinlarda nasl-nasabni ifodalash va erkalash shakli bo'lib kela olishi o'zaro nomutanosibdir.

Ayrim affiksoidlarning shakllanishi uslub bilan ham bog'liq, masalan, arab tilida "ayol" ma'nosini beruvchi *niso* so'zi *Qambarniso* ("asosan qiz bolalarga qo'yiladi va bu ism arabcha bo'lib, quyidagi ma'nolarga ega: Qar. Qambar va Niso. Eht.: Qamarniso" [6.]), *Zebuniso* ("asosan qiz bolalarga qo'yiladi va ... quyidagi ma'nolarga ega: Zebu - zeb ziynat, niso -nur, shu'la, zebu-ziynatni nuri, shu'lasini"[7]), *Xolbuniso, Noriniso, Zulfiniso, Qumriniso* kabi ayollarning ismi tarkibida kelib, ismga singishib ketgan. "Ot so'z turkumi doirasida qaraladigan subyektiv baho shakllarida ham modallik munosabatlari mavjud. Bu kabi erkalash ottenkasini beradigan ... *-beka, -bekach, -poshsho, -bibi, -pari, -bonu, -niso* affiksoidlari"[8. 2012: 37.] ham bor. Bunday affiksoidlar ismlarni suniy qisqartirish (nutq talabi bilan: *Xolbu, Nori, Zulfi* (Zulfixon), *Qumri*) yo'li bilan qo'shilish ehtimoli yuqoridir. *-niso* affiksoidining shakllanishi arab tilidan tojik tiliga, tojik tilidan o'zbek tiliga affiksoid bo'lib kirib kelgan. Bugungi kunda *-niso* affiksoidi kam mahsul shakl yasovchi hisoblanib, o'zbek tilida mutanosib holatda ishlatiladi. Ya'ni bu shaklda nomutanosiblik kuzatilmaydi.

Affiksoidlarning soddalashuvi ham mavjud. Bunday soddalashish jarayonida qaysidir affiksoid asos, qaysi biridir so'zshaklning qismi bo'lib keladi. Affiksoidlar kombinatsiyasidan yangi ismlar paydo bo'ladi. Ularning yonma-yon kelishi va ma'no ifodalab qolishi ham kuzatiladi: *-jon + -mirza – Jonmirza, -oy + -poshsha + -xon – Oyposhshaxon, -oy + -bek + -jon – Oybekjon, -bek + -jon – Bekjon, -xon + -zoda + -oy – Xonzodaoy, -jon(i) + -bek + -xon – Jonibekxon, -bek + -bo'ta – Bekbo'ta* kabi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bunday yasalmalar tarkibidagi *-jon, -mirza, -oy, -poshsha, -bek, -jon, -bo'ta* unsurlari o'z ma'nosidan uzoqlashib, ajralmas birlikka aylanib qolgan, ya'ni soddalashgan: ikki birlik bir birlikka aylangan. *Jonmirza, Oyposhshaxon, Oybekjon, Bekjon, Jonibek, Xonzoda, Bekbo'ta* ismlari tarkibida ularning morfemaga o'xshash qismlari sifatida ishtirok etgan "jon", "mirza"; "oy", "poshsha"; "oy", "bek"; "bek", "jon"; "xon", "-zoda"; "bek", "bo'ta" birliklarini

soʻzning lugʻaviy maʼnoli qismlari sifatida ajrata olmaymiz. Chunki bunday birliklar yuqoridagi atoqli otlar tarkibida oʻzlarining lugʻaviy maʼnolarini yoʻqotgan. Bugungi kunda ularni shu soʻzlar tarkibi sifatida lugʻaviy qiymatga ega morfemalar sifatida ajratib boʻlmaydi.

Ayrim affiksoidlar bir-biri bilan shakl jihatdan nomutanosib boʻlib qoladi. Aynan ikki shaklning bir mazmun uchun xizmat qilishi shakliy nomutanosiblikni koʻrsatadi. *-oy* va *-bonu*: *Gavharoy* – *Gavharbonu*; *-bek* va *-jon*: *Murodbek* – *Murodjon*; *-xon* va *-oy*: *Charosxon* – *Charosoy* kabi shakllarning maʼnodoshligi asosida shakliy nomutanosiblikni koʻrsatmoqda.

XULOSA

Demak, taraqqiyot natijasida bir shaklning ham soʻz sifatida, ham affiksoid sifatida kelishi (*xon* – *-xon* kabi), bir affiksoidning ham shakl yasovchi sifatida, ham soʻz yasovchi sifatida kelishi (*Malikaxon* – *kitobxon* singari), shakl yasovchi bir affiksoidning ham hurmat maʼnosida, ham erkalash mazmunida kelishi (*domlajon* – *Murodjon* kabi) mazmuniy nomutanosiblikni yuzaga keltirsa, ikki affiksoidning bir mazmunga xizmat qilishi (*Yusufbek* – *Yusufjon* kabi) maʼnodoshlik asosidagi shakliy nomutanosiblikni yuzaga keltirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, yuqorida tahlilga olingan ayrim affiksoidlar bugungi kunda ismlarning tarkibiy qismi boʻlib, ajratib boʻlmas holatga kelib qolgan. Affiksoidlar tilshunoslikning morfemika sathini boyitib turgan birliklar sifatida qaraladi. Mustaqil soʻzlarning morfem birliklar qatoriga qarab siljishi natijasida, oʻz maʼnosini qisman yoki toʻlaligicha yoʻqotadi. Taraqqiyot natijasida asl soʻz ifodalayotgan mazmun keyin paydo boʻlgan birlikka nisbatan toʻlaligicha nomutanosib boʻlib qoladi. Demak, affiksoidlar shakl kengayishi va soʻz yasashida faol ishtirok etib, ular asos va lugʻaviy shakl jihatdan, shakl va mazmun jihatdan turli nomutanosibliklarni yuzaga chiqaradi. Bu esa yangi tadqiqotlar uchun maʼlum maʼnoda xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Berdialiyev A., Ermatov I. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Toshkent: Tamaddun, 2022.
2. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy oʻzbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006.
3. Ibragimov M., Affiksoidlar va ularning morfem tabiati // Results of National Scientific Research. 2022.
4. Tojiyev Y. Oʻzbek tili morfemikasi. – Toshkent, 1992.
5. Qudaybergenov M., va boshqalar. Qoraqalpoq tilining nazariy grammatikasi. – Nukus; 2017.
6. <https://ismlar.com/uz/name/Qambarniso>
7. <https://ismlar.com/uz/name/Zebuniso>
8. Karimov S. Oʻzbek tilining grammatik stilistikasi masalalari. – Samarqand; 2012. – B. 37.